

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

3/2023



E-ISSN 2181-1466

9 772181146004

ISSN 2181-6875

9 772181687004

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2023, № 3

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinnbosari: Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor (Andijon davlat Pedagogika instituti rektori)

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori (O'zR FA tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi)

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Qurbanova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**

ANIQ VA TABIIY FANLAR * EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И
ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ**

Norqulov J.F., Azimov R.B., Amirov A.A.	G'ildirak tishlariga ta'sir qiladigan eguvchi kuchlanishni tish yuzasi qattiqligiga bog'liqligini o'rganish va takomillashtirish	3
Tukhtaev B.J., Kanokova Sh.Z., Xudoyberdiyeva Sh.A., Olimov X.K.	Анализ средних поперечных импульсов частиц при столкновении Au+Au и Pb+Pb в сфере энергии (s_{nn}) ^{1/2} =62-5020 GeV	8
Masharipov S. I.	Hardy Littlewood Polya relation for nonlinear reflections	12
Umarov S.H., Hasanov N.Z., Hallokov F.K., Narzullaeva Z.M.	Effect of pressure and thermal expansion on the optical absorption edge and the deformation potential model in TLGAS ₂	16
Xayitova X.G'.	Ikkinci tartibli matritsaviy model operatorning ba'zi spektral xossalari	23
Aliyeva T.A.	Features of the natural growth development of urban population in Nakhchivan economic region	29

TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Asadov T.H.	O'zbek tilidagi murakkab tarkibli ayrim affikslarning tabiat xususida (ravishga nisbat beriladigan affikslar misolida)	37
Azimov I.M.	Miyon Buzrukning adabiy til, istiloh masalalariga munosabati	42
Bozorova R.Sh.	Nemis tilida gidronimlarning kelib chiqish tarixi	48
Davlatova M.H.	Ikkilamchi predikat bilan ifodalanadigan rezultativ tuzilmalar turlari xususida	55
Fayzullayev O.M., Ergasheva G.R.	Lingvomadaniyatshunoslikning fan sifatida shakllanishi, rivojlanish bosqichi va sohani o'rganishga doir yondashuvlar	60
Shirinova M.Sh., Rzayeva Ch.V.	Kinofilmlar tilida evfemizmlarning tutgan o'rni va ahamiyati	64
Хидирова Г.Х.	Замонавий терминологияда терминнинг объектив таърифи, тавсифи ва чегарасини ажратиш муаммолари	69
Hamroyeva N.N.	Shaxslararo muloqot jarayonida dialogik diskursning o'rni va kommunikativ strategiyalar	76
Ismoilova D.R.	Language crimes in English language	81
Narzullayeva F.O.	Tilning nominativ va ekspressiv funksiyalarining o'rganilishi	85
Rabieva M.G'.	Olamning kontseptual manzarasi kognitiv tajribaning muhim komponenti sifatida	90
Rasulov Z.I., Sharopov Sh.Sh.	Kooperatsiya tamoyilining pragmalingvistikadagi o'rni	94
Uzakova L.A.	O'zbek va ingliz tillarida to'y bilan bog'liq leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi: ingliz to'y marosimimlarini o'rganish	99
Xolova Sh.D.	"Avoir" fe'li ishtirokidagi inson his-tuyg'ularini ifoda etuvchi frazemalar tarjimasining o'ziga xosliklari	103
Xudoyev S.S.	O'zbek va nemis topishmoqlarida metaforik birliklarning antropotsentrik tadqiqi	108
Xusainova Z.Y.	Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da stemming jarayoni tavsifi	113
Yusupova D.Y.	Euphemistic findings of the poet Halima Khudoiberdiyeva	120

“AVOIR” FE’LI ISHTIROKIDAGI INSON HIS-TUYG’ULARINI IFODA ETUVCHI FRAZEMALAR TARJIMASINING O’ZIGA XOSLIKLARI

Xolova Shahnoza Davronovna,

Buxoro Davlat universiteti

Tarjimashunoslik va lingvovididaktika kafedrasи o’qituvchisi

Shaxnozaxolova25@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologiyaning alohida bo’lim sifatida shakllanishi, uning rivojida fransuz olimlarining qo’shgan hissasi haqida so’z borgan. Shuningdek, fransuz tilida ko’p qo’llanadigan “avoir” fe’li yordamida inson his-tuyg’ularini ifoda etuvchi frazemalarning o’zbek tiliga tarjimasida diskursiv va lingvomadaniy nuqtai nazardan mutarjim e’tibor qaratishi lozim bo’lgan jihatlar tahlil qilingan. Ushbu frazeologik birliklarning fransuz va o’zbek tillaridagi muqobililik va farqli jihatlari ko’rsatib o’tilgan.

Kalit so’zlar: frazeologiya, tahlil, termin, “avoir” fe’li, his-tuyg’ular, frazeologik birlik, ma’no, tarjima, ibora.

Abstract: This article talks about the formation of phraseology as a separate department, the contribution of French scientists to its development. It also analyzed the aspects that the translator should pay attention to from a discursive and linguocultural point of view when translating phrases expressing human feelings into Uzbek using the verb “avoir”, which is often used in French. Alternative and different aspects of these phraseological units in French and Uzbek are shown.

Key words: phraseology, analysis, term, verb “avoir”, emotions, phraseological unit, meaning, translation, expression.

Аннотация: В данной статье говорится о становлении фразеологии как отдельного отдела, вкладе французских учёных в её развитие. Также были проанализированы аспекты, на которые переводчику следует обратить внимание с дискурсивной и лингвокультурологической точки зрения при переводе фраз, выраждающих человеческие чувства, на узбекский язык с помощью часто употребляемого во французском языке глагола «avoir». . Показаны альтернативные и разные аспекты этих фразеологизмов во французском и узбекском языках.

Ключевые слова: фразеология, анализ, термин, глагол «avoir», эмоции, фразеологизм, значение, перевод, выражение.

Kirish

Tarixiy lug’atlarga ko’ra, frazeologiya atamasi ilk bora nemis gumanist olimi Michael Neanderning 1558-yiga nashr etilgan *Phraseologia Isocratis Graecolatina* nomli yunon-lotin lug’ati sarlavhasida tilga olingan. Asli lotin tilida kelib chiqqan *phraseologia* so’zi “phrasis” “gapirish usuli” va “logia” “nutq, fan, ta’limot” so’zlaridan olingan. XVII asrda ushbu termin jumla va idiomalar to’plami, so’zlarni tartiblash ususli, o’ziga xos ifoda usuli sifatida qabul qilingan. O’tmishda frazeologiyaning maqsadi faqatgina maqol va hikmatli so’zlarni tahlil qilish hisoblanar, binobarin u paremiologiya deb nomlanar edi. Vaqt o’tishi bilan, frazeologiya so’zi leksikografik asarlarda ko’rina boshladi va idiomatologiya atamasi bilan raqobatga kirishdi. Bu davrda, frazeologiya termini avvalo biror tilga oid hamda boshqa tilga tarjima qilishda qiyinchilik tug’diradigan so’z va so’z birikmalariga xos tushuncha sifatida qabul qilingan. Uning mazmuni va o’xshash terminlar bilan munosabati tilshunoslik taraqqiyoti davomida o’zgarib keldi. Uzoq vaqt mobaynida frazeologiya tilshunoslikning aniq bir sohasi deb hisoblanmas edi. U nisbatan keyinroq rivojlana boshladi va XX asr boshlariga kelib maydonga chiqdi.

Shveysariyalik tilshunos olim Charles Bally asarlari turg’un birikmalarning frazeologik muammo markaziga kirishiga, muhokamalar markazidan o’rin egallashiga hissa qo’shdi. Uning fikricha, “har bir muhit shartli frazeologiya va terminologiyasiga ega bo’lgan, yana ko’p hollarda murakkab grammatik shakllardan tarkib topgan o’z tilini yaratadi. Shu ondan boshlab, ushbu o’ziga xos tillar xususiyati va ularning umumiyligi ko’rsatadigan harakat ta’siri ko’zga tashlanadi”.

Uning izdoshlari, sovet tilshunoslari Vinogradov va Kunin frazeologiyaga katta e’tibor qaratdilar va uni aniq bir tilning rejasi deb hisoblardilar. Ular frazeologik birliklar belgilarini tilshunoslikning boshqa birliklari bilan taqqosladi. Bu borada qarama-qarshi nazariyani ilgari surgan ayrim tadqiqotchilarning

LINGUISTICS

fikricha, tillar turg'un so'z birikmalarisiz ham mavjud bo'ladi, ya'ni u zaruriy tuzilma emas. Ammo frazeologiya o'zining aniq tadqiqot maqsadi va metodlariga ega, demak uni aniq lingvistik soha deb qarash mumkin. Frazeologiya ko'p hollarda stilistika, sintaksis yoki leksikologiyaning bir tarmog'i sifatida o'rganiladi.

Asosiy qism

Asosiy frazeologik birliklardan biri hisoblangan frazemalar ko'pgina g'arb tilshunos olimlari tomonidan o'rganilishda davom etmoqda. Jumladan, Montreal universiteti professori Igor Aleksandreyevich Melchuk fransuz tilida frazema va uning turlariga mufassal ta'riflar keltirib, misollar bilan asoslab bergen: "Frazemalar – ya'ni, "mutlaq, to'liq tuzilgan iboralar", "turg'un jipslashgan iboralar", "idiomatik birikmalar", "nutq shakkllari" – mavzusi yigirma yillardan beri tilshunoslikda eng ommabop mavzulardan biriga aylandi. Buni anglash qiyin emas: frazemalar tilda nihoyatda ko'p, barcha janrdagi matnlar ular bilan to'lib toshganligi hammaga ayon. Demak, bu eng ko'zga tashlanadigan va hech qanday shubhasiz muhim omil hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida frazemalar barcha "sof" formal nazariyalar uchun chetlab o'tib bo'lmaydigan da'vat, mo'ljal-nishonni aks ettiradi".

Frazemalar gap tarkibida turli maqsadlarda ishlataladi. Jumladan, bir qator bunday turg'un birikmalar inson his-tuyg'ularini ifoda etishga xizmat qiladi. Hissiyot deb bizni o'rab turgan borliqdagi barcha mavjudotlar, narsa va hodisalarga bo'lgan munosabatlar natijasida paydo bo'ladigan tuyg'ularga aytildi. His-tuyg'ularsiz birorta ruhiy jarayon kechmaydi. Hissiy qo'zg'alishlar yurakda ham aks etadi. Hayajonlanganda yurak urib ketishining kuchayishiga qarab qadimda hissiyot markazini yurakda deb hisoblashgan. Odamning turli va ko'p qirrali his-tuyg'ulari ma'lum darajada ijobiy va salbiy xillarga ajratiladi. Hissiyot – bu shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlardan kelib chiqadigan kechinmalari. Shaxs tirik mavjudot bo'lishi bilan birga jamiyat a'zosi hamdir, shuningdek, yakka inson sifatida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarga munosabatini xolisona aks ettiradi. Tuyg'ularning tashqi ko'rinishi og'zaki va og'zaki bo'lмаган (verbal va noverbal ifoda) turlarga bo'linadi. Birinchisi, insonning o'zi nimani his qilayotganini yoki ishora qilganini og'zaki ifoda etadi. Umuman olganda, his-tuyg'ularning og'zaki tashqi ifodasi nutqning semantik qismi bilan bevosita bog'liqidir. Tuyg'ularning og'zaki bo'lмаган – noverbal turi ko'plab belgi-ishoralarini o'z ichiga oladi, masalan: tananing holati, imo-ishoralar, yuz ifodalari, nafas olish, yurak urishi, intonatsiya. Og'zaki ifoda sintaktik, leksikologik va boshqa lingvistik tuzilmalarga tegishli barcha holatlarni o'z ichiga oladi.

Hissiy jarayonlar affektlar, ya'ni hissiy portlashlar orqali namoyon bo'ladi. Bunday affektlarni, masalan, tana qaltirashi, g'ayriixtiyoriyhatti-harakatlar, yuzdagimimo-ishora, ovozdagi o'zgarishlar, qo'qqisdan namoyon etilgan kulgu yoki yig'i, tez-tez yoki qiynalib nafas olish kabi hatti-harakatlarni tasvirlashda frazeologik birliklarning aksariyatini fe'lli birikmalar tashkil etadi. Fransuz tilida eng ko'p ishlataladigan fe'llardan *être, avoir, mettre* va *faire* kabilalar ushbu o'rinda ham eng sermahsul fe'llar bo'lib xizmat qiladi.

Jumladan, "avoir" ishtirokida bir qator frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular nutqda turli vaziyatlarda so'zga qo'shimcha ma'no berib, tilni boyitishga xizmat qiladi. Bunday frazemalar inson his-tuyg'ularini ifodalab, g'azab, nafrat, qo'rquv, quvonch, mehr, baxt, hayajon kabi turli diskurslarda lingvomadaniy xususiyat kasb etadi. Biz quyidagi jadvallarda "avoir" komponentli, inson his-tuyg'ularini ifoda etuvchi frazemalar tarjimasiga e'tibor qaratamiz:

<i>Quvonch, baxt, hayrat, muhabbat</i> – la joie, le bonheur, le contentement, le plaisir, l'enthousiasme, l'étonnement, la surprise, l'amour		
1.	avoir de la chance	omadi kelmoq
2.	avoir la bouche fendue jusqu'aux oreilles	og'zi qulog'iga yetmoq
3.	avoir la main heureuse	omadli bo'lmoq
4.	avoir le fou rire	qotib kulmoq
5.	avoir le plaisir	huzurlanmoq
6.	avoir la joie	quvonmoq
7.	avoir le bonheur	baxtli bo'lmoq
8.	avoir la pêche	sog'lom bo'lmoq, o'zini yaxshi his qilmoq
9.	avoir le coup de foudre	bir ko'rishda sevib qolmoq
10.	avoir du fun	huzurlanmoq, quvonmoq

LINGUISTICS

Yuqorida keltirilgan ijobiylar tuyg'ular mazmunidagi frazeologik birliklar tarjimasida ham ko'chma ma'noli birikmalarni ko'rish mumkin(*og'zi qulog'iga yetmoq*).

<i>Istak, qiziqish, jasorat</i> – le désir, l'envie, le courage, l'audace		
1.	avoir envie de	xohlamoq
2.	avoir l'intention de	istagi bor bo'lmoq
3.	avoir du courage	jasur bo'lmoq
4.	avoir confiance	ishonmoq
5.	avoir la certitude	ishonchi komil bo'lmoq
6.	avoir du respect pour	hurmat qilmoq
7.	avoir des couilles	jasoratli bo'lmoq
8.	avoir de l'audace	dovyurak bo'lmoq
9.	avoir la passion de	ishtiyoyqmand bo'lmoq

Istak, qiziqish, jasorat tuyg'ularini ifoda etuvchi frazemalar tarjimasida so'zlar, asosan, o'z ma'nosida tarjima qilinishi kuzatildi.

<i>Mashaqqat, sabr</i> – la peine, la patience		
1.	avoir de la peine à	mashaqqat chekmoq
2.	avoir un mal fou à	qiynalmoq
3.	avoir un mal de chien à	azob chekmoq
4.	avoir beau	bekorga urinmoq
5.	avoir du mal à	qiynalmoq
6.	avoir la gorge serrée	bo'g'ilmoq
7.	avoir de la patience	sabrli bo'lmoq
8.	avoir le dos large	fe'li keng, sabrli bo'lmoq

<i>G'azab, nafrat, xafalik</i> – la colère, la haine, la tristesse		
1.	avoir de la haine	nafratlanmoq
2.	avoir de la rancune contre	adovatda bo'lmoq
3.	avoir du chagrin	g'am-qayg'u chekmoq
4.	avoir horreur de	nafratlanmoq
5.	avoir le cœur gros	yuragi g'ash bo'lmoq
6.	avoir le moral à zéro	tushkun kayfiyatda bo'lmoq
7.	avoir mauvais moral	yomon kayfiyatda bo'lmoq
8.	avoir qn dans le nez	ko'rgani ko'zi yo'q bo'lmoq
9.	avoir une dent contre qn	birovga tish qayramoq
10.	en avoir assez	joniga tegmoq
11.	en avoir marre	to'yib ketmoq
12.	en avoir ras-le-bol	joniga tegmoq
13.	en avoir par-dessus la tête	sabr kosasi to'lmoq
14.	en avoir plein le dos	bezor bo'lmoq
15.	avoir une colère jaune	g'azabi qaynamoq
16.	avoir une colère bleue	g'azab otiga minmoq

G'azab, nafrat, xafalik tuyg'ularini ifoda etadigan fransuzcha frazeologik birliklarda somatizmlar ishtiropi mavjud, o'zbek tiliga qilingan tarjimalarda ham mosliklarni ko'rish mumkin. (*avoir une dent contre qn – birovga tish qayramoq, avoir le cœur gros – yuragi g'ash bo'lmoq*)

<i>Qo'rquv, uyat</i> – la peur, la honte		
1.	avoir peur	qo'rqmoq
2.	avoir des sueurs froides	sovuj terga botmoq
3.	avoir des doutes	shubhalanmoq
4.	avoir la trouille(verte)	dahshatga tushmoq

5.	avoir la frousse	o‘takasi yorilmoq
6.	avoir les jetons	qo‘rquvdan qaltiramoq
7.	avoir le trac	hayajonlanmoq, vahima qilmoq
8.	avoir honte	uyalmoq
9.	avoir la chienne	qo‘rqmoq
10.	avoir une peur bleue	joni halqumiga kelmoq
11.	avoir le rouge au front	uyatdan qizarmoq

Xulosa

Mazkur jadvallardan ko‘rinib turibdiki, “avoir” komponentli ruhiy holatni aks ettiruvchi frazeologik birliklar ifodalayotgan ma’nolar orasida *g’azab*, *nafrat*, *xafalik* dominant ma’no bo‘lib hisoblanadi. Biroq quvonch, *baxt*, *istak*, *jasorat*, *qo‘rquv* ma’nolari ham bunday frazeologik birliklarning ko‘pchiligidagi o‘z aksini topgan. Inson ruhiy kayfiyatining mazkur uch xil holatini tasvirlashda yuqoridagi fransuzcha “avoir” komponentli frazeologik birliklar eng ko‘p qo‘llanadigan frazeologik iboralar bo‘lib hisoblanadi. Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, “avoir” komponentli frazeologik birliklar fransuz tilida inson his-tuyg‘ularini yanada yorqinroq, xilma-xil diskursiv vaziyatlarda ifoda etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday frazeologik birliklarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda kontekstual vaziyat, matn uslubi va muloqot ishtirokchilarining ruhiy holati tarjimon diqqat-markazida bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR:

1. Davronovna, X. S. (2022). *Viktor gyugoning “misérables” romanida qo‘llanilgan ayrim frazemalarning leksik-semantik xususiyatlari*. ISSN 2181-3191 VOLUME 1, ISSUE 2 MAY 2022, 361. <http://researchedu.org/index.php/rae/article/view/934>
2. Kholova Sh.D., “Some features of certain phraseological units translation used in French literature of the nineteenth century”, European journal of interdisciplinary research and development, 2022-yil 18-noyabr, volume 9, 70-74-betlar https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=SOME+FEATURES+OF+CERTAIN+PHRASEOLOGICAL+UNITS+TRANSLATION+USED+IN+FRENCH+LITERATURE+OF+THE+NINETEENTH+CENTURY&btnG
3. Xolova Sh.D., “Frazeologik birlik-frazema-frazeologizm : tasnif va tadqiqot tahlili”, Buxoro davlat universiteti Ilmiy axboroti, 2022-yil dekabr, 6/2022 son, 92-97 betlar. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8679
4. Nafisa, K. . (2022). *On Anglophone Borrowings in the Contemporary Russian Media*. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2(5), 158–163. Retrieved from <https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/367>
5. Nargiza Savrievna Zokirova. (2022). *The function of cognitive dominants in the translator’s discourse*. Conferencea, 96–99. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/297>
6. Khaydarova L. (2022). *Classroom Activities that Best Facilitate Learning*. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 6, 377–380. Retrieved from <https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/415>.
7. Xaydarova L. (2022). «Global value of health and its practical implementation in the form of actual daily practices. центр научных публикаций (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5779
8. Radjabov R. (2022). *Научные взгляды ученых на употребление термина «будущее».* На славянском и персидском. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 16(16). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7132
9. Fayziyeva Aziza. "Shaxsiy rivojlanishga oid asarlarning lingvistik xususiyatlari." центр научных публикаций (buxdu.uz) 8, no. 8 (2021).
10. Туйбоева Ш. (2022). *Простая конструкция предложения в узбекской и французской системной лингвистике.* Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5813.

LINGUISTICS

11. Zokirovna O. D. (2022). *On the Peculiarities of Simultaneous Interpreting*. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(5), 170–180. Retrieved from <https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/369>
12. Рабиева, М. (2022). Контекстуально-ситуативные и социо-коммуникативные принципы эвфемизма, ортофемизации и дисфемизации. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5455
13. Baxtiyorovna, I. F. (2022). Sources of Linguocultures and Linguoculturological Field. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(6), 56-60. Retrieved from <https://cajlpccentralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/379>
14. Olimovna, Narzullayeva Firuza. "Contrastive Analysis of the "Head" in English and Uzbek Languages." *Spanish Journal of Innovation and Integrity* 5 (2022): 410-413.
15. Nasriddinovna, S. Z. (2022, April). Classification of syntactic relations in compound sentences. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 121-123).
16. Shakirov R. *Classification des homonymes dans la langue française*. – Éditions universitaires européennes, 2021.
17. Xafizovna, R. N. . (2022). *Linguistic Politeness Theory Review: Yueguo Gu, Sachiko Ide, Shoshena Blum Kulka, Bruce Frasher and William Nolen, Hornst Arndt and Richard Janney*. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(5), 145–152.
18. Nasilloyevna, S. S. (2021). *The image of a woman in a victorian novel*. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(12), 610-617.
19. Xaydarova, L. (2022). *The importance of the usage of interactive methods while developing reading skills of young learners*. центр научных публикаций (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5778
20. Salikhova N. N. *Interjections in the Contexts of Uzbek and English Languages //Indonesian Journal of Innovation Studies*. – 2022. – Т. 18.
21. Salixova N. *Отличительные особенности восклицательных слов в разговорном языке //центр научных публикаций (buxdu.uz)*. – 2021. – Т. 5.– №. 5.